

**QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI
FOYDALANISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB
CHIQUARISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI**

O'qituvchi stajyor, **Bosimova Guloyim Bahodir qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti, TDAU

Annotatsiya: Mazkur maqola qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda menejment qarorlarining iqtisodiy tahlil natijalari bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholarini shakllantirish mavzusini ochib berishga bag'ishlanadi. Shuningdek, maqolada qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi va yurtimizda mazkur sohaning rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar ham berilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, ijtimoiy muammolari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chakana savdo, investitsiya, mehnat resurslari, aylanma fondler, agrar islohotlar

Kirish. Qishloq xo'jaligining jahon iqtisodiyotidagi o'rni keyingi yillarda keskin ortib bormoqda. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning asosiy omillari bo'lgan yer, suv, mehnat resurslari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar miqyosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo'lib, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xomashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi asosan, ikkita yirik tarmoq - dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Bu ikki soha aholi uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarim dastlabki qayta ishlaydigan bir qancha tarmoqlami ham o'z ichiga oladi. Iqtisodiy

jihtadan faol aholining taxminan yarmi, kamroq taraqqiy etgan mamlakatlarda esa ko'pincha 80- 90 foizidan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etadi. Qishloq aholisining ijtimoiy muammolari, joylashishi qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bir qancha mamlakatlarda o'rmon xo'jaligi ham qishloq xo'jaligi tarkibiga kiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi natijalar Respublikamizni MDH ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi yuqori darajada o'sayotgan davlatlar qatoriga kiritish imkonini berdi¹.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni asrash borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Zero, yer odamlarni boqsa, kiyintirsa, suv esa tiriklik manbai, tabiatning bebaho in'omidir. Ayni chog'da qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektarni tashkil etadi. Bundan 3,2 million gektari sug'oriladigan ekin yer maydonlari bo'lib, unda aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun esa zarur xom ashyo yetishtirilmoqda. Lekin so'nggi yillarda mamlakatimiz aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 foizga, o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqargani kuzatilmoqda. Bu borada yurtimizda sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida

¹ S.N.Normurodov, I.N.Ziyadullayev, S.O'.Xoliqov, O'.A Abdullayev, H.F.Dilmurodov, FSS-2025, IOP Publishing, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1535 (2025) 012028, doi:10.1088/1755-1315/1535/1/012028, <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>

davlat dasturlari doirasida keng ko‘lamli irrigasiya va meliorasiya tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu sa’y-harakatlar natijasida 2008 - 2017 yillar mobaynida 1,7 million gektardan ortiq sug‘oriladigan maydonlarning suv ta’minoti hamda 2,5 million gektar maydonlarning meliorativ holati yaxshilanishiga erishildi.

Prezidentimizning 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ushbu salbiy oqibatlarining ta’sirini kamaytirish va kelgusida bartaraf qilishga xizmat qilayotir. Mazkur hujjatdan respublikada yillar davomida irrigasiya va meliorasiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigasiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo‘qotilishini kamaytirishdek muhim vazifalar o‘rin olgan.

Adabiyotlar sharhi. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi qo‘llaniladigan qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining mukammallik darajasi va intensivlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, u nafaqat ishlab chiqarish rentabelligining maqbul darajasi, balki tuproq unumdorligini oshirishni ham ta’minlashi lozim bo‘ladi (Merkulova, 2025). Merkulova va Vyazov (2015) qishloq xo‘jaligi sohasida iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun ham qiymat va ham tabiiy ko‘rsatkichlardan foydalanish lozimligini ta’kidlaydilar. Mazkur mualliflar asosiy ko‘rsatkichlarga yerning rentabelligi, yer sig‘imi va yer qaytimi kabi ko‘rsatkichlarni kiritishadi, bunda ular mazkur ro‘yxatni tarmoq va faoliyat turi bo‘yicha hisoblangan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi bilan to‘ldiradilar (Merkulova, 2015). Shuningdek, ular yerni shudgorlash darajasi, hosildorlik, o‘g‘itlash va

muayyan bir ekin turini bir gektarga ekishda ozuqa moddalari olish kabi ko'rsatkichlarning muhimligini tan olishadi. Joriy va taqqoslanadigan narxlarda yer maydoni birligiga yalpi mahsulot emas, balki tovar mahsulotlar ishlab chiqarish Xanbaev va Daibova (2016) tomonidan yerdan foydalanish iqtisodiy samaradorligining asosiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida baholanadi (Xanbaev, 2021).

O'tgan qisqa davrda sug'oriladigan va lalmi yerlar, tog' va tog'oldi hamda cho'l-yaylov hududlarining tuproq unumdorligini oshirish, suv va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Qolaversa, zamonaviy usullar asosida mamlakat oziq-ovqat ta'minoti barqarorligiga erishish uchun yangi serhosil qishloq xo'jaligi ekinlari, ularning birlamchi urug'chiligini yaratishga alohida e'tibor qaratilyapti. Olib borilayotgan chora-tadbirlar qishloq xo'jaligida suv resurslaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish tabiiy tizimlarda ekologik muvozanat va bioxilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Toza va sog'lom suv ekotizimlarini saqlash ularning ifloslantiruvchi moddalarni mustaqil ravishda qayta ishlash va turli xil suv organizmlarining hayotini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy o'g'itlar va pestisidlar, agar ular to'g'ri ishlatilmasa, suv resurslarini ifloslantirishi mumkin. Atrof-muhit omillarini hisobga olish va suv resurslarini hurmat qilish suvning kimyoviy birikmalar bilan ifloslanish xavfini kamaytirishga, sanoat va maishiy maqsadlarda foydalanish uchun zarur bo'lgan suv sifatini oshirishga yordam beradi.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida 18,7 ming km. yoki 66 foizi tuproq o‘zanli bo‘lgan magistral va xo‘jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini

13,1 ming km.ga yoki 46 foizga yetkazish, shuningdek, meliorasiya ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug'oriladigan yer maydonlarida sho'rlangan maydonlarni 1,7 million gektargacha kamaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Keyingi yillarda yurtimizda ushbu masalaga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki suv manbalari O'zbekistondagi ko'plab ekotizimlar, jumladan, daryolar, ko'llar va suv omborlari uchun muhim ahamiyatga ega. Suv resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va ularni boshqarish biologik xilma-xillikni saqlashga, suv sifatini yaxshilashga olib keladi va ekoturizmni saqlash hamda rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning yerdan foydalanish borasidagi munosabatlarni tartibga solishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan xukumat dasturlari va yo'l xaritalari tashkil qiladi.

Tadqiqot ishining uslubiyoti sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish bog'liq bo'lgan munosabatlarni tizimli-funktsonal va dialektik o'zaro bog'liqlikda tadqiq qilishda namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etishning asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilar taklif qilingan:

- agrosanoat majmui sohasida band bo'lgan hududlardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan;
- agrosanoat majmui sohasida band bo'lgan hududlardan foydalanishni boshqarishning uslubiy yondashuvlari belgilangan;

- bo'sh turgan hududlarni biznes aylanmasiga jalb qilish vositalari taklif etiladi;

- optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui qishloq xo'jaligini raqamli o'zgartirish sharoitida agro-innovatsiyalarni joriy etish taklif etiladi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini tartibga solish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish borasida davlatning islohotchilik o'rni oshib borayotgan bo'lsa-da, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi to'lig'icha o'z yechimini topayotgani yo'q. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lgan yerlardan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar etarlicha emas.


Umuman olganda, agrosanoat tizimida suv resurslarini saqlash, ekologik omillarni hisobga olish fermerlar va qishloq xo'jaligi korxonalarining jamiyat oldidagi mas'uliyati va burchidir. Zero, bu oziq-ovqat xavfsizligini va uzoq muddatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi, bu - ishlab chiqarishning barqaror ishlashini ta'minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Bugungi kunda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste'moli 55-70 foizni tashkil qilmoqda. Chakana savdoda oziq-ovqat mahsulotlari importi salmog'i 40 foizdan ziyod. Qishloq xo'jaligini erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi darajasida barqaror rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning turli mulkchilik shakllarini va tadbirkorlik

shakllarini barpo etishning zarurligi, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlar maydoni, sifati, moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligining asosiy va aylanma fondlari, mehnat resurslari bozori, mehnat unumdorligini oshirish, investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) bo'yicha davlatning siyosati, qishloqda servisni rivojlantirish, xarajatlarni tejash, mahsulotlarining va xizmatlarning baholarini belgilash va qishloq xo'jalik korxonalarining daromadlarini ko'paytirish yo'llarini asoslab berish maqsadga muvofiqdir. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning bozor shakllariga o'tildi va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning salmog'i oshdi.

Mamlakatda yiliga 20 million tonna meva-sabzavot yetishtiriladi. Lekin ularni sanoat usulida qayta ishlash darajasi atigi 15 foiz bo'lib, shundan 7-8 foizi eksport qilinmoqda. Infratuzilma yetarli emasligi tufayli yig'ishtirish va saqlash jarayonida 30 foiz mahsulotlar yo'qotilmoqda. Bu sohadagi imkoniyatlardan oqilona foydalanib, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash kengaytirilsa, oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish va eksport hajmini oshirish mumkin. Bugungi kunda mamlakatda 31 ta agrologistika markazi, 1 ming 500 ta sovutkich omborlar bor. Ularda jami yetishtiriladigan meva-sabzavotning 4,5 foizinigina saqlash mumkin. Bu juda kam, albatta. Masalan, meva-sabzavotning 65 foizi, go'sht va sut mahsulotlarining 93-95 foizi dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalarida yetishtirilmoqda. Biroq, shu mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalar 50-60 foiz quvvatda faoliyat yuritmoqda. O'tgan yili meva-sabzavotning 19 foizi, go'sht va sut mahsulotlarining 16 foizigina sanoat darajasida qayta ishlangan, xolos.


Odatda uzum, qovun, tarvuz, qovoq va anorning urug'i tashlab yuboriladi. Xorijda bu urug'lar qayta ishlanib, taniq mahsulotlar tayyorlanadi. Xususan, bir kilogramm tarvuz urug'i yog'i jahon bozorida 28 dollar, anor urug'iniki esa 350 dollar turadi. O'zbekistonda ham ushbu mahsulotlarni yig'ib olish va qayta ishlash yo'lga qo'yilsa, yiliga 250 million dollarlik eksportbop mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Qaror bilan 2019-2022 yillarda umumiy qiymati 8 trln. 471 mlrd.so'm bo'lgan 243 ta loyihalar amalga oshirilishi va 9 544 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan. Bugungi kun holatiga umumiy qiymati 459,3 mlrd.so'mlik 42 ta loyiha ishga tushirilib, 958 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. So'nggi uch yilda tashqi bozorga yo'naltirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi uch baravarga oshdi. Mamlakatimiz dunyoning 22 davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqda (1-rasm). Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash korxonalarida olib borilayotgan ishlardan asosiy maqsad respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z vaqtida yig'ib-terib, ncs-nobud qilmasdan saqlash, ularni qayta ishlab, aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqishga qaratilgan. Buning uchun vetakchi davlatlar texnologiya va texnikalari joriy etilgan, y a'ni uzluksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan uskunalar bilan jihozlangan korxonalar barpo etilmoqda. Yangi korxona va sexlarni qurish bilan bir qatorda mavjud korxonalarni Vangi texnologiyalar bilan rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda.



1-rasm.

Qayta ishlash yoki konservalashning asosiy maqsadi keng ma`noda sabzavot va mevalarni sof holatda saqlashdan farqliroq tinch, ya`ni jonsiz holatda saqlashni va ortiqcha, uzoq pazandalik ta`sirisiz oziq-ovqatga foydalanishni ko`zda tutadi. Konservalash ayniqsa rezavor, danakli mevalar, mevalik va bargli sabzavotlarni qayta ishlash konserva olish katta ahamiyatga ega bolib, shu yol bilan aholini yil davomida uzluksiz vitamin va boshqa moddalarga boy maxsulot bilan ta`minlash imkonini yaratadi. Ma`lumki, deyarli hamma sabzavot va mevalar tez buziluvchan maxsulotlariga kiradi, shuning uchun ularning oziq-ovqat qiymatini va organoleptik sifatlarini saqlash uchun yoki texnologik qayta ishlash usulini topish kerakki, tayyorlangan maxsulotni oddiy yoki ba`zi bir qoshimcha sharoit yaratilgan

omborlarda uzoq saqlash imkoniyatiga ega bolsin. Maxsulotlarni sof holda saqlash va ularni konservalash - ikkalasi bir-birini toldiruvchi va bir muammoni, ya'ni aholini yil boyi meva-sabzavot mahsuloti bilan ta'minlovchi usullar hisoblanadi. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash asosan agrosanoat korxonalarida keng kolamda amalga oshiriladi. Uncha katta bolmagan, orta va kichik korxonalar joylardagi sanoat va kooperatsiyalar tarkibida mavjuddir. Xojaliklarning joylashishi va yonalishiga qarab ularda turli qayta ishlash korxonalari tashkil etilishi mumkin (2-rasm).



2-rasm.

Meva-sabzavot ishlab chiqarishida konservalashning quyidagi usullari keng joriy etilmokda: quritish, tuzlash, sirkalash va jadal muzlatish keng tarqalgan va kelajakda rivojlanishi zarur bolgan sohalar - tuzlash manzillari, meva-sabzavot kampotlari ishlab chiqaradigan tsexlar, murabbo va djem, qandolatchilik tsexlari, muzlatish uskunalari, sabzavot va mevalarni qurituvchi tsexlar va konserva korxonalaridir. Qayta ishlash va konservalash meva-sabzavotlardagi roy beradigan biokimyoviy jarayonlarni toxtatishga asoslangan bolib, maxsulotlardagi fitopatogen mikroflorani sondirish [va maxsulotni tashqi muhitdan](#), ya'ni havo va nurdan yoki yorug'likdan ajratish bilan erishiladi.

Konservalash usullari fizik, mikrobiologik va kimyoviyatlarga bolinadi. Konservalashning fizik usullariga quyidagilar kiradi:

- Issiklik bilan sterilizatsiyalash - konservalashning asosiy ishlab chiqarish usuli hisoblanib, o'z ichiga sirkalashni (marinovaniyani) ya'ni sirka kislotasi qo'shib sterilizatsiya qilishni o'z ichiga oladi.
- Qand, tuzlarning yuqori konsentratsiyasi hisobiga, osmatik bosimning quritilishi, ya'ni mikroorganizmlar xayotini to'xtatish imkoniyatini yaratish.
- Past salbiy haroratda jadal muzlatib sterilizatsiya qilish.
- Nurlatib sterilizatsiya qilish ul tra binafsha, yuqori tolqinli, radioaktiv.
- Turli mikroorganizmlardan tozalaydigan fil trlardan foydalanib sterilizatsiya qilish. Ulardan o'tkazilgan sharbatdagi mikroorganizmlarning spori holi bolinadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish, davlat byudjeti subsidiyalari orqali kredit tizimidan foydalanish, hosilni sug'urtalash va boshqa bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. ²Biroq, qishloq xo'jaligining barqaror va jadal rivoji hozircha ta'minlangani yo'q. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida innovatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalar hamda xo'jalik yuritishning yangicha shakllaridan foydalanish orqali ushbu muammonihal etish mumkin. Shu bilan bir qatorda, qishloq va boshqa ASM korxonalari mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga keskin talablar qo'yilmoqda. Ushbu talablarga javob berish uchun «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti» fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

² S.N.Normurodov, I.N.Ziyadullayev, S.O'.Xoliqov, O'.A Abdullayev, H.F.Dilmurodov, FSS-2025, IOP Publishing, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1535 (2025) 012028, doi:10.1088/1755-1315/1535/1/012028, <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida yer davlat mulki hisoblanadi. Bu davlatimizning bosh qomusida o'z ifodasini topgan. Shunga ko'ra, unga egalik qilish munosabatlarining rivojlanishi natijasida qishloq xo'jaligida bugungi kunga kelib xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllari vujudga keldi. Xo'jalik yuritish sub'ektlarining turli-tumanhgi tufayli, iqtisodiy manfaatlarga bog'liq holda, ulaming aniq ko'zlangan maqsadlari ham turlichadir. Ammo, ayni paytda ular uchun mulk ob'ektlaridan oqilona foydalanish, ulami istiqbolli rivojlantirish, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga jadal joriy etish kabi umumiy jihatlar ham xosdir. Davlat mulki mavjud bo'lishining ob'yektiv zaruriyati bozor nomukammalliklari bilan ham izohlanadi. Bunday bozor "kemtiklari" o'rtasida quyidagilar alohida ajralib turadi: tashqi samara, tabiiy monopoliyalarning mavjud bo'lishi, axborotlar assimetriyasi va shu kabilar. Shu tariqa iqtisodiyotga davlat aralashuvi darajasi va davlat mulki o'lchamlarini o'zgartirish har bir davr va har bir mamlakat uchun iqtisodiy erkinlik va xo'jalik aralashuvi, butun ijtimoiy xo'jalikning mikro va makroiqtisodiy manfaatlari, xususi va davlat tadbirkorligi o'rtasida ma'lum bir maqbul bo'lgan nisbatlarini ta'minlash borasida iqtisodiy tizimning ichki intilishlarini aks ettiradi. Quyidagi amaliy ahamiyatga ega bo'lgan omillar qishloq xo'jaligida davlat mulkining zaruriyat sifatida mavjud bo'lishini belgilab beradi:

✚ xususi sektoming faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bolgan makroiqtisodiy shart- sharoitlami yaratish, ya'ni an'anaviy tarzda xususi kapital uchun qiziqish uyg'otmaydigan, tijorat jihatdan foydasiz bo'lgan, ammo milliy xo'jalik uchun takror ishlab chiqarishning umumiy shartsharoitlarini belgilab beruvchi tarmoqlami qo'llab-quvvatlash;

✚ fan-texnika taraqqiyoti jarayonlarining jadallashuvini belgilab beruvchi va ushbu asosda mamlakatning jahon xo'jaligida raqobatbardoshligining mustahkamlanishini ta'min etuvchi ilm va kapital sig'imli qimmatga va tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan loyihalarni amalga oshirish;

✚ ishchi o'rinlarini yaratish yo'li saqlab qolish, mahsulotlarga nisbatan past narxlarini belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar va ziddiyatlarini bartaraf etish maqsadida qoloq hududlarini rivojlantirish;

✚ milliy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

✚ shartnoma va kelishuvlarning amalga oshishi uchun shart-sharoitlar yaratish va davlat kafilligini berish.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida davlat mulki g'arb mamlakatlaridagi xo'jalik yuritishning aynan shu shakliga nisbatan birmuncha samaraliroqdir, bu holatni faqatgina davlat mulkining keskin qisqarishi, xarajatlarning o'sishi va ijtimoiy ziddiyatlarini keltirib chiqarishi mumkinligi bilan izohlab bo'lmaydi. Bizningcha, hududlar o'rtasidagi tafovutlarini bartaraf etish, yagona iqtisodiy makonni yaratish maqsadida milliy iqtisodiyotda davlat mulki ulushini ma'lum nisbatlarda saqlab qolish maqsadga muvofiqdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifasi davlat mulki monopolizatsiyasini qisqartirishni taqozo qiladi. Chunki, sog'lom bozor iqtisodiyoti davlat monopolizatsiyasi bilan chiqishmaydi, monopolizatsiya raqobatga to'sqinlik qiladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish oqibatida iqtisodiyotda davlat mulkining hisssasi kamayib, u asosan jamoa mulkiga, ayrim hollarda fuqaro mulkiga va xususiy mulkka aylanadi. Shu sababli "iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining g'oyat muhim vazifasi davlat mulki monopolizatsiyasini tugatish va bu mulkni

xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat edi", deya ta'kidlaydi Prezidentimiz.

Respublikamizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha qishloq xo'jaligida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida tarmoqda davlat mulki hissasi keskin kamayib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligida davlat mulki hissasining keskin pasayishi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning birinchi davri (1990-1994 yillar) ga to'g'ri keladi. Bu davrda qishloq xo'jaligidagi barcha davlat xo'jaliklari jamoa va shirkat xo'jaliklariga aylantirila boshlandi. Natijada davlat xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi hissasi 1991 yilda 34,0 % dan 1996 yilga kelib, 2,2 % ga tushib qolganini kuzatish mumkin. Davlat mulki hissasi iqtisodiy islohotlarning keyingi davrlarida ham pasayish tendentsiyasiga ega. Bu qishloq xo'jaligida davlat korxonalari sonining keskin kamayishida o'z ifodasini topmoqda.

Xulosa va takliflar. O'zbekiston Respublikasi hukumati qishloq xo'jaligini rivojlantirishda navbatda turgan muhim vazifalami e'tiborga olgan holda, bugungi kunda bir qancha muammolarni hal etishni o'z zimmasiga olgan. Bu esa davlatning bosh islohotchi ekanligini isbotlamoqda. Hozirgi davrda respublika hukumatining asosiy e'tibori qishloq xo'jaligining barcha sohalari yagona fan-texnika siyosatiga asoslangan holda, rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Chunki ilm-fan, yangi, samarali texnika hamda ilg'or texnologiya barcha yutuqlarning asosiy garovidir. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga alohida e'tibor berib kelishgan. Mintaqamizda ob-havo yil va bir kecha-kunduzda o'zgaruvchan bo'lganligi sababli go'sht, yog', sut, baliq, tuxum kabi mahsulotlar issiqda tez ayniydi, juda qattiq

sovuqda esa sabzavot va mevalar muzlab qoladi. O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning eng qadimgi usullaridan ko'mib [yoki ilib saqlash](#), qoqi olishda quritish kabilar keng qo'llanilgan. Mahsulot saqlashda sabzavot, don, meva, go'sht, qazi va tuxumni ko'mib, poliz mahsulotlarini osib saqlash, turli meva, qovun, pomildorilardan qoqi olish, uzum, rayxon, kashnich, jambil va qizil qalampirni quritishni amalda keng qo'llanilishi shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR

1. Muxammadiev Jasur Nasirillo o'g'li. Abdusalomov Javoxir Tulkinovich, Nasimov Xasan Murodovich Vajnost Mikrokapsul Dlya Skrytiya Vkusov I Zapaxov Vещestv, Central asian journal of medical and natural sciences, ISSN: 2660-4159, 336-338.
2. Khalatov A.A., Byerley A., Min S.K., Vinsent R. Application of advanced techniques to study fluid flow and heat transfer within and downstream of a single dimple. Minsk: ITMO named after A.V. Lykov, 2021. 20 p.
3. Karimov K.A., Akhmedov A.Kh., Kushimov B.A., Yuldoshev B.Sh. Justification, development of a new technology and design for drying seeds of desert fodder plants. International Scientific Conference "Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering" (CONMECHYDRO – 2020) Held on April 23-25, 2020 in Tashkent, Uzbekistan.C.1-10.
4. Kushimov R.X. Ergashev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Toshkent - "extremum press" – 2021.

5. Ismoilov A., Murtazaev O. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti"-T.: 2013 y.
6. Коваленко СБ. Козенко З.Н. "Сельскохозяйственная кредитная кооперация" - М.: "Финансы и статистика" - 2022 -446 с.
7. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.SH., Rashidov Sh., Toshboyev A.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti"-T.: "Iqtisod-moliya" 2023-267.
8. S.N.Normurodov, I.N.Ziyadullayev, S.O'.Xoliqov, O'.A Abdullayev, H.F.Dilmurodov, FSS-2025, IOP Publishing, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 1535 (2025) 012028, doi:10.1088/1755-1315/1535/1/012028, <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/1535/1/012028>.
9. Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish, Yashil iqtisodiyot & taraqqiyot ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal 2025-yil, iyun. № 6-son, <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>, 775-779 betlar.
10. Kasimov Botir Sadriddinovich, Safarov Asqarbek Asadullayevich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining roli, Agrobiznes, fan va texnologiyalar ilmiy-amaliy elektron jurnal, №1/2025, <https://agrobiznesjournal.uz/uz>, 292-299 betlar.